O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 10 - iyul 146-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 23 iyundagi 283-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini modernizatsiya qilishda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va sohaga xususiy sektorni jalb qilish jarayonlarini jadallashtirish, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi 118-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 185-sonli qaroriga muvofiq hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 23-iyundagi 283-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **qaror qilaman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi 118-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 185-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 23-iyundagi 283-10-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to‘g‘risida”gi 118-sonli qarorigagi ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:

xususiy sheriklar tomonidan ko‘mir mahsulotlari zaxirasini yaratishga byudjetdan rejalashtirilgan mablag‘lar doirasida oldindan 50 foizgacha bo‘nak mablag‘larini moliyalashtirish va qolgan mablag‘larni joriy yilning 1 sentabriga qadar moliyalashtirish;

mahalliy isitish qozonlari ishlab chiqaruvchilarga O‘zbekiston Respublikasi hududiga xom ashyo va ehtiyot qismlarini olib kirishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini 6 oy muddatga foizlar hisoblanmagan holda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berilganligi shinobatga olinsin.

3. Tegishgligi bo‘yicha bo‘lim va tashkilotlar Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 17-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi 118-sonli qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 173-10-0-Q/23-sonli qarorini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi 185-sonli qarori ilovasi bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligini inobatga olgan holda qaror ijrosini bajarilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**